

**“Tasdiqlayman”**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini  
rivojlantirish jam‘armasi direktori

  
A. Eminov

“10” noyabr 2022-yil

**BUYURTMACHI:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish  
jam‘armasi

“O‘zbek tili frazeologik lug‘ati (lotin) orginal maketi va dizaynini tayyorlash hamda  
chop etish”

**TANLOV HUJJATLARI**

**Toshkent shahar – 2022**

## **Tanlov hujjatlarining mazmuni:**

### **I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma**

#### **TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA**

Ushbu yo'riqnoma 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qaroriga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-mayda 3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha Boshqaruvi Milliy Agentligining "Tanlov tartib-tamoyillarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi" tartibi asosida ishlab chiqildi

#### **1. TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI**

1.1. Xizmatda shartnoma asosida foydalanish uchun jalb qilinadigan "O'zbek tili frazeologik lu'g'ai" (lotin 1000 nusxada) original maketi va dizaynini tayyorlash hamda chop etish.

1.2. Tanlov oxirgi qiymati – bir donasi uchun 82 000 (**sakson ikki ming**) so'm QQS bilan hamda muallif qalam haqi inobatga olingan. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab **30 kun**

1.5. Ishlarni boshlash muddati – avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

#### **2. TANLOV TASHKILOTCHILARI**

2.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi (bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataladi) tanlov tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.

2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

2.3. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi binosida "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Tanlov komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

#### **3. TANLOV ISHTIROKCHILARI**

3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 1 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi:

- shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

- tanlov obyektiga o'xshash obyektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

- o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- tanlov obyektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo'lmagan holda);

Nizom mablag'i miqdori.

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

- qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilishi), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

- mol-mulki musodara qilinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.